



LEKSIKOGRAFIYA SOHASINING SHAKLLANISHI VA TARAQQIYOTI

Sog'inboyeva Shahzoda
Namangan davlat universiteti

Annotatsiya: Ushbu maqolada leksikografiya fanining mazmun-mohiyati, uning amaliy va nazariy tarmoqlarga bo'linishi, hamda lug'atlar tuzish tamoyillarining shakllanish jarayoni yoritilgan. Unda leksikografiyaning lug'at turlari, ularning makro va mikrostrukturasi, shuningdek, lug'at tuzishning ilmiy asoslari haqida so'z yuritiladi. Maqolada Mahmud Koshg'ariyning "Devonu lug'otit turk" asari misolida o'zbek leksikografiyasining tarixiy ildizlari tahlil qilingan. Shuningdek, qo'lyozma lug'atlar davri, ularning o'zbek tilshunosligi taraqqiyotidagi o'rni va ahamiyati yoritib berilgan. Leksikografiyaning leksikologiya, fonetika, grammatika va til tarixi kabi sohalar bilan uzviy bog'liqligi ham ko'rsatib o'tilgan.

Kalit so'z: Leksikografiya, lug'at, amaliy leksikografiya, nazariy leksikografiya, Mahmud Koshg'ariy, "Devonu lug'otit turk", qo'lyozma lug'atlar, til tarixi, o'zbek lug'atchiligi, leksikologiya, fonetika.

FORMATION AND DEVELOPMENT OF LEXICOGRAPHY

Sog'inboyeva Shahzoda
Namangan State University

Abstract: This article explores the essence of lexicography as a field of study, its division into practical and theoretical branches, and the process of developing principles for dictionary compilation. It discusses the various types of dictionaries, their macro- and microstructures, as well as the scientific foundations of lexicographic work. The article analyzes the historical roots of Uzbek lexicography through Mahmud al-Kashgari's "Devonu lug'otit turk". It also highlights the period of handwritten dictionaries and their significance in the development of Uzbek linguistics. Moreover, the interrelation of lexicography with such linguistic disciplines as lexicology, phonetics, grammar, and the history of language is emphasized.

Keywords: Lexicography, dictionary, practical lexicography, theoretical lexicography, Mahmud al-Kashgari, Devonu lug'otit turk, manuscript dictionaries, history of language, Uzbek lexicography, lexicology, phonetics.

«Leksikografiya» yunoncha lexikos (so'zga oid, aloqador) va grapho (yozaman) so'zlarining qo'shilmasi bo'lib, «so'zlarni yozib chiqish, ta'riflash, tasvirlash» ma'nosidagi termindir. So'zlarni to'plash va tavsiflash faqatgina amaliy jarayon bo'lmay, bunda bir qancha ilmiy izlanishlar, tahlillar ham taqozo etilishi sababli, leksikografiya, o'z navbatida, amaliy leksikografiya (lug'atchilik) hamda nazariy leksikografiya (lug'atshunoslik)ga bo'linadi. V.G.Gakning yozishicha,



tilshunoslikning lugʻatchilik nazariyasiga oid sohasi, yaʼni nazariy leksikografiya lugʻat turlari va ularni tuzishning nazariy asoslarini ishlab chiqish bilan shugʻullanadi va bir qancha muammolarni qamrab oladi. ¹Chunonchi: lugʻatlarning umumiy tipologiyasini va yangi turdagi lugʻatlarni ishlab chiqish; lugʻat makrostrukturasini ishlab chiqish (soʻzlarni tanlab olish, soʻz va lugʻat maqolalarini joylashtirish tartibi, omonimlarni belgilash, lugʻat tarkibiga havola materiallarni kiritish); lugʻat mikrostrukturasini, yaʼni har bir lugʻat maqolasini ishlab chiqish (soʻzga grammatik va fonetik izoh berish, soʻz maʼnolarini ajratish va tasniflash, dalil sifatidagi illyustrasiyalar turlari, taʼriflash turlari, belgilar tizimi, soʻz etimologiyasi haqidagi maʼlumotlar) va b. Lugʻat tuzishning umumiy va xususiy nazariy jihatlari, tamoyillari oʻz vaqtida turkiyshunoslikda, jumladan, oʻzbek tilshunosligida ham ishlab chiqilgan.²

Amaliy leksikografiya (lugʻatchilik) ham lugʻatlar tuzish barobarida bir qator ijtimoiy muhim vazifalarni bajaradi: oʻz va oʻzga tillarni oʻrganish; ona tilini tavsiflash va meʼyorlashtirish (izohli, imlo va boshqa turdagi lugʻatlar yordamida); tillararo aloqa-munosabatni taʼminlash (ikki va koʻp tilli lugʻatlar, soʻzlashgichlar); muayyan til leksikasini ilmiy oʻrganish (etimologik, tarixiy lugʻatlar) kabilar.

Leksikografiya lugʻat tuzish ishi sifatida turli xalqlarda yozuv taraqqiyotining ilk bosqichlarida u yoki bu tushunarsiz (eskirgan, lahjaviy, maxsus yoki chet tilga mansub) soʻzning qanday maʼno anglatishini bilish ehtiyoji natijasida paydo boʻlgan.³ Leksikografiya ham amaliy, ham nazariy soha sifatida leksikologiya, uslubshunoslik, fonetikaga hamda til tarixi, tilning grammatik qurilishi haqidagi taʼlimotga suyanagan holda ish koʻradi. Yuqorida aytganimizdek, zamonaviy leksikografiya lugʻatlarning muhim ijtimoiy vazifasini alohida qayd etib, lugʻatlar tipologiyasini ishlab chiqadi. Shu jihatdan bir tilli leksikografiya (izohli va boshqa lugʻatlar), ikki tilli leksikografiya (til oʻrganishga maxsuslangan lugʻatlar), ilmiy-texnik leksikografiya (terminologik lugʻatlar) oʻzaro farqlanadi. Oʻzbek leksikografiyasi tarixi Mahmud Koshgʻariyning «Devonu lugʻotit turk» asaridan boshlangan, deb aytish mumkin. Barcha turkiy xalqlarning umumiy, mushtarak obidasi boʻlmish ushbu lugʻat 1074-yilda yaratilgan boʻlsa, shundan keyin oʻtgan salkam 950 yillik vaqt mobaynida oʻzbek tili leksikasining turli davrlardagi holatini aks ettiruvchi oʻnlab, yigirmalab qoʻlyozma lugʻatlar va bir necha yuzlab bosma (litografik, tipografik) lugʻatlar yaratildi. Turli hajm va turli xarakterdagi, turli maqsadlarni koʻzlab tuzilgan bu lugʻatlarning barchasini bir-gina

¹ Сафаров Ш. Когнитив тилшунослик. - Жиззах, 2006.

² Қурбонова М. Ҳозирги замон ўзбек тили (Содда гап синтаксиси учун материаллар). - Тошкент, 2002

³ Қурбонова М. Ҳозирги замон ўзбек тили (Содда гап синтаксиси учун материаллар). - Тошкент, 2002



maqola doirasida xronologik tarzda tavsiflab o'tishning imkoni bo'lmaydi. Shu tufayli ularning eng muhim va diqqatga sazovorlari haqida qisqacha to'xtalib o'tamiz.⁴

Qo'lyozma lug'atlar. O'zbek leksikografiyasiga bevosita aloqador qo'lyozma lug'atlar tuzish XI asrdan XIX asrning birinchi yarmigacha bo'lgan davrni qamrab oladi va qo'lyozma lug'atlarning ibtidosi, albatta, «Devonu lug'otit turk» hisoblanadi⁵. Ushbu asar turkiy xalqlar tarixidagi dialektologik, izohli, etnografik, tarixiy-etimologik va boshqa xil lug'atlarning barcha unsurlarini qamrab oluvchi dastlabki universal lug'at bo'lib, o'z muallifini dunyoga, butun turkiy olamga ulug' adabiyotchi, tarixchi, geograf va boshqa ko'p fanlardan yaxshi xabardor bo'lgan yirik fan arbobi, qomusiy olim sifatida tanitdi. Mazkur asarda muallif turkiy qabila va urug'lar(xalqlar) tillaridagi so'zlar ma'nosini arab tilida izohlab beradi. Misol sifatida esa maqollardan foydalanadi va badiiy adabiyotdan parchalar keltiradi. Bu haqda Koshg'ariyning o'zi shunday yozadi: «Men bu kitobni maxsus alifbe tartibida hikmatli so'zlar, sajlar, maqollar, qo'shiqlar, rajaz va nasr deb atalgan adabiy parchalar bilan bezadim... Men iste'moldagi so'zlarnigina berdim, iste'moldan chiqqanlarini tashladim... So'ngra men har bir qabilaga mansub so'zlarning yasaliş xususiyatlarini va qanday qo'llanishini qisqacha izohlab ko'rsatish uchun alohida yo'l tutdim. Bu ishda misol tariqasida turk(iy)larning tilida qo'llanib kelgan she'rlaridan, shodlik va motam kunlarida qo'llanadigan hikmatli so'zlaridan, maqollaridan keltirdim».⁶

Shuni aytish kerakki, lug'atda keltirilgan adabiy parchalar, til faktlari faqat XI asr adabiyotining namunalari bo'lmay, ularning aksar qismi juda uzoq o'tmish davrlarning mahsulidir. Shu jihatdan bunday parchalar turkiy tillarning kelib chiqish tarixini, rivojlanishini belgilashga xizmat qiluvchi eng muhim hujjatdir. Asardagi bir qancha geografik, astronomik, etnografik va boshqa ma'lumotlar ham tegishli sohalar nuqtayi nazaridan katta ahamiyatga ega. Umuman olganda, Mahmud Koshg'ariyning «Devonu lug'otit turk» asari Markaziy Osiyoda hamda unga yondosh bo'lgan hududlarda istiqomat qilgan turkiy qabilalar va ularning til xususiyatlarini o'rganishda hamda hozirgi ayrim turkiy xalqlarning shakllanishi va taraqqiyotini aniqlashda muhim manba vazifasini o'tab kelmokda.

⁴ Кошғарий Маҳмуд. Девону луғотит турк. 3 жилдлик (таржимон ва нашрга тайёрловчи - С. М. Муталлибов). - Тошкент, 1960-1963;

⁵ Девону луғотит турк. Индекс-луғат (Ғ. Абдурахмонов ва С. Муталлибовлар иштироки ва таҳрири остида). - Тошкент, 1967.

⁶ Усмонова Ш. Психолингвистика (ўқув-услубий мажмуа). - Тошкент, 2011.



FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Нурмонов А. Структур тилшунослик: илдизлари ва йўналишлари. - Тошкент, 2009. - Б. 107.
2. Ахманова О. С. Глоссематика Л. Ельмслева как проявление упадка современного буржуазного языкознания. // Вопросы языкознания, 1953. №5.
3. Раҳматуллаев Ш. Систем тилшунослик асослари. - Тошкент, 2007;.
4. Ҳожиёв А. Ўзбек тили морфологияси, морфемикаси ва сўз ясашишиинг назарий масалалари. -Тошкент, 2010 ва бошқалар
5. Сафаров Ш. Прагмалингвистика. - Тошкент, 2008;
6. Сафаров Ш. Когнитив тилшунослик. - Жиззах, 2006.
7. Каримов И. Юксак маънавият - енгилмас куч. -- Тошкент, 2007. - Б. 87.
8. Қурбонова М. Ҳозирги замон ўзбек тили (Содда гап синтаксиси учун материаллар). - Тошкент, 2002
9. Сафаров Ш. Прагмалингвистика. - Тошкент, 2008.
10. Усмонова Ш. Психоллингвистика (ўқув-услубий мажмуа). - Тошкент, 2011.
11. Убайдуллаев А. Ҳиндистонда яратилган туркий луғат // Til va adabiyot ta'limi, № 3 2010.
12. Ғаниева С. Техрон китобхоналаридаги Навоий асарларининг қўлёзмалари // ЎТА, №4,1991.